

RAQAMLI IQTISODIYOTDA HUDUDIY RIVOJLANISH DASTURLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING XORIJ TAJRIBASI

Abdullaev Umidjon G'afurovich
Alfraganus University o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy rivojlanish dasturlarini diversifikatsiya qilishning dolzarbligi va xorij tajribasi tahlil qilinadi. Rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan raqamli platformalar, innovatsion boshqaruv yondashuvlari hamda iqtisodiy diversifikatsiya mexanizmlari o'rganilib, ularning hududlar iqtisodiy faolligini oshirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni qo'llash imkoniyatlari va asosiy ustuvor yo'nalishlar ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, diversifikatsiya, xorij tajribasi, innovatsion boshqaruv, iqtisodiy o'sish.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматривается актуальность диверсификации программ регионального развития в условиях цифровой экономики и анализируется зарубежный опыт в этой сфере. Изучаются цифровые платформы, инновационные методы управления и механизмы экономической диверсификации, применяемые в развитых странах, а также их роль в повышении региональной экономической активности. Кроме того, определяются возможности адаптации данного опыта к условиям Узбекистана и выделяются ключевые приоритетные направления.

Ключевые слова: цифровая экономика, региональное развитие, диверсификация, зарубежный опыт, инновационное управление, экономический рост.

Abstract. This thesis examines the importance of diversifying regional development programs in the context of the digital economy and analyzes international best practices in this area. It explores digital platforms, innovative management approaches, and economic diversification mechanisms used in developed countries, highlighting their role in enhancing regional economic activity. The study also outlines opportunities for applying these experiences in Uzbekistan and identifies key priority directions.

Keywords: digital economy, regional development, diversification, international experience, innovative management, economic growth.

Kirish. Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni tashkil etish va amalga oshirish dasturlariga xalqaro amaliyotda turlicha yondashuvlar mavjud. Bugungi kunda amalda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning turli modellari mavjud bo'lib, mamlakatlarda mazkur modellardan qaysi biri amal qilishi ko'ra korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlarini amalga oshirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan prinsiplar, korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlarini amalga oshirishda davlatning roli, korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlarining asosiy yo'nalishlari, mazkur jarayonda

davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar kabilar bir-biridan farq qiladi. Shu sababli quyidagi jadvalda korporativ ijtimoiy mas'uliyat modellari va ularning xususiyatlarini tahlil qilamiz.

Xalqaro amaliyotda amal qiladigan korporativ ijtimoiy mas'uliyat modellari aks etgan. Bugungi kunda korporativ ijtimoiy mas'uliyatning Amerika modeli, Yevropa modeli, Yapon modeli va aralash modellari amalda mavjud bo'lib, turli xususiyatlar bilan bir-biridan farq qiladi. Amerika modelida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish mutlaq huquqqa ega bo'lish, voqealarni axborot bilan ta'minlashning ko'p qirrali usullaridan foydalanish, mehnat va ijtimoiy siyosat sohasidagi munosabatlar individualizmga asoslanishga asoslanadi. Mazkur modelda davlatning roli kichik bo'lib, jarayonga minimal darajada aralashadi. Qolaversa, davlat tomonidan soliq imtiyozlari qonunchilikda belgilangan. Yevropa modelida esa korporativ ijtimoiy mas'uliyatni amalga oshirish manfaatdor tomonlar oldida o'zlarining javobgarligini cheklashga moyillikning mavjud bo'lishi, davlat normalari, standartlari va qonunlari bilan tartibga solinishi prinsiplariga asoslanadi. Mazkur modelda davlatning roli katta bo'lib, nazorat to'liqligicha davlat tomonidan amalga oshiriladi hamda hech qanaqa davlat imtiyozlari mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlangan boshqa modellarda ham shu kabi o'ziga xosliklarni kuzatishimiz mumkin.

Bank of America bankida korporativ ijtimoiy mas'uliyat bankning moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirishning muhim usuli hisoblanadi. Mazkur bank hamkorlik qiladigan kompaniyalar va turli jamoalar bilan aloqalarning qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilganligi mazkur kompaniyalar va jamoalardagi xodimlar va mijozlar yordamida mazkur bankning faoliyati natijalarida o'z aksini topadi. Bank of America faoliyatida korporativ ijtimoiy mas'uliyat iqtisodiyotning o'sishiga yordam beradigan samarali kreditlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda iqtisodiyotning turli sektorlariga investitsiyalar kiritishni qamrab olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. M. Castells, K. Schwab, E. Brynjolfsson, A. McAfee kabi tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyotning transformatsion ta'siri, texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Ularning fikricha, raqamli platformalar hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda asosiy vosita hisoblanadi. Singapur va Janubiy Koreya tajribasi raqamli hukumat, raqamli biznes ekotizimi va hududlar rivojlanishining integratsiyalashgan modelini yaratishda o'rnatq bo'ladi. Yevropa Ittifoqining "Digital Europe" va "Smart Cities" dasturlari raqamli infratuzilma va innovatsion klasterlar orqali hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. AQSHda "Regional Innovation Clusters" dasturi iqtisodiy diversifikatsiyaning muvaffaqiyatli modeliga aylandi. O'zbekiston tajribasini baholashda Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi, "Hududlarni kompleks rivojlantirish" dasturi va iqtisodiy diversifikatsiyaga doir islohotlar asosida mahalliy rivojlanish modeli shakllanmoqda. Ammo xorijiy tajriba bilan qiyoslanganda raqamli infratuzilma, innovatsion xizmatlar bozori va klasterlashuv jarayonlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Bank of America bankida korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinishini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Bank of America bankida korporativ ijtimoiy mas'uliyat bo'yicha global qo'mita tuzilgan hamda mazkur qo'mita muntazam ravishda direktorlar kengashining korporativ boshqaruv qo'mitasiga hisobot beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy tahlil metodi -raqamli iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, iqtisodiy diversifikatsiya va strategik boshqaruvga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Xorijiy mamlakatlar (Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Singapur, AQSH) tajribasiga oid nazariy yondashuvlar solishtirildi. Qiyosiy tahlil. Turli mamlakatlarda hududlar iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda qo'llaniladigan raqamli platformalar, innovatsion boshqaruv mexanizmlari va davlat-xususiy sheriklik modellari qiyoslandi. O'zbekiston sharoitiga mos keladigan mexanizmlar ajratib olindi. Kontent tahlili Xalqaro tashkilotlar (OECD, UNDP, World Bank, UNCTAD) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar va strategik hujjatlar tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiy rivojlanish indikatorlari, hududiy barqarorlik ko'rsatkichlari kontent asosida tahlil qilindi.

Ekspert yondashuvi (analitik baholash) Xorijiy tajribani O'zbekiston hududiy rivojlanish jarayonlariga tatbiq qilish imkoniyatlari ekspert baholov usuli orqali sintez qilindi. Mahalliy sharoitga mos takliflar shakllantirildi. Sistemalashtirish va umumlashtirish Olingan ma'lumotlar tartibga solinib, konseptual model shakllantirildi. Xorijiy tajribaning asosiy asoslari umumlashtirilib, hududiy rivojlanish dasturlarini diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari mustahkamlandi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida Better Money Habits platformasi ishga tushirilgan va takomillashtirilganligini ham ta'kidlash lozim. Qolaversa, rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kiritiladigan investitsiyalarni jadallashtirish uchun 10 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilgan, kam uglerodli mahsulotlar bilan bog'liq faoliyatni moliyalashtirish uchun deyarli 40 milliard AQSh dollari hamda jamoat kreditlari va investitsiyalari uchun 60 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag' ajratilgan. Shuningdek, mazkur bank tomonidan OITSdan holi avlodni shakllantirish maqsadida hamkorlikni kengaytirilgan hamda minglab faxriylar va harbiylar oilalarini ishga olish va uy-joy bilan ta'minlash orqali qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirilgan (rasm).

Bank of America banki har yili korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlarini muntazam ravishda amalga oshiradi hamda bu bo'yicha moliyalashtirish hamda hamkorlik o'rnatishda faol qatnashadi. Bank of America tomonidan 2021-yilda korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlari doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur chora-tadbirlar keng qamrovli ekanligini hamda turli yo'nalishlarni qamrab olganligini ko'rishimiz mumkin.

Bank of America 2021-yil muntazam ravishda turli ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik yo'nalishlardagi loyihalarda faol ishtirok etgan. Xususan, 2021-yilda Tory Burch jamg'armasi bilan hamkorlik AQSHdagi tadbirkor ayollarga arzon kreditlar olish, maslahat yordami va tarmoq imkoniyatlari taqdim etilgan. RED bilan

hamkorlik 2014-yilda Davosda bo‘lib o‘tgan Jahon Iqtisodiy Forumida OIV/OITSga qarshi global kurash uchun 10 million AQSh dollari ajratilishi e‘lon qilinganligini ham ta’kidlash lozim. Yana bir muhim xayriya harakatlaridan biri bu U2 guruhining yangi “Invisible” qo‘shig‘i yuklab olish bilan bog‘liq xayriyalar orqali Super Bowl aksiyasi davomida OIV/OITSga qarshi kurash uchun 48 soat ichida 3 million AQSh dollari xayriya fondi yig‘ilishida faol ishtirokchi bo‘lgan.

Korporativ ijtimoiy mas’uliyat bo’yicha global qo‘mita tuzilgan hamda mazkur qo‘mita muntazam ravishda direktorlar kengashining korporativ boshqaruv qo‘mitasiga hisobot beradi;

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun Better Money Habits™ platformasi ishga tushirilgan va takomillashtirilgan;

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kiritiladigan investitsiyalarni jadallashtirish uchun 10 milliard AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan, kam uglerodli mahsulotlar bilan bog‘liq faoliyatni moliyalashtirish uchun deyarli 40 milliard AQSh dollari hamda jamoat kreditlari va investitsiyalari uchun 60 milliard AQSh dollaridan ortiq mablag‘ ajratilgan;

OITSDan holi avlodni shakllantirish maqsadida hamkorlikni kengaytirilgan;

Minglab faxriylar va harbiylar oilalarini ishga olish hamda uy-joy bilan ta’minlash orqali qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilgan.

Rasm. Bank of America bankida korporativ ijtimoiy mas’uliyat dasturi yo‘nalishlari.

Bank of America banki bosh direktori Brayen Moynixan Nyu-Yorkdagi Birlashgan Millatlar Korporativ tuzilmaining Iqlim o‘zgarishi bo’yicha sammitida 10 milliard dollarlik katalitik moliyalashtirish tashabbusini e’lon qilgan. Bank of America banki Give A Meal loyihasi orqali ochlikka qarshi kurash uchun mijozlar va xodimlar xayriyalarining ta’sirini kengaytirish bo’yicha ishlar olib borgan va Feeding America bilan hamkorlikda 45 milliondan ortiq muhtoj odamlarni ovqat bilan ta’minlagan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Kalvert jamg'armasi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganligi Bank of Americaning korporativ ijtimoiy mas’uliyat bo’yicha dasturlari kengayib borayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa. Yuqoridagilar asosida xalqaro amaliyotda korporativ ijtimoiy mas’uliyat dasturlari amalda keng qo‘llanilishini ta’kidlash lozim. Mazkur dastur manfaatdor tomonlarning talablarini qondirishi hamda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarga erishishda xizmat qilishi mumkin. Shu sababli O‘zbekistonda korporativ ijtimoiy mas’uliyat dasturlarini shakllantirish hamda amalga oshirishni samarali tashkil etishda korporativ ijtimoiy mas’uliyatni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi nizomlarni joriy etish hamda korporativ ijtimoiy mas’uliyat auditi to‘g‘risidagi nizomlarni ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Э.А. Хошимов, М.М. Муратаев. Акциядорлик жамиятларида корпоратив ижтимоий масъулият тизими мохияти ва зарурияти. // “Science and Education” Scientific Journal, February, 2023 / Volume 3 Issue 2. - 8 б.
2. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. – MIT Press, 2014.
3. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
4. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016.
5. Castells M. The Rise of the Network Society. – Wiley-Blackwell, 2021.
6. OECD. Digital Economy Outlook. Paris: OECD Publishing, 2022.
7. World Bank. Digital Development Global Practice Reports. Washington, 2021–2023.
8. UNDP. Human Development Report. New York, 2022.
9. European Commission. Digital Europe Programme 2021–2027.
10. UNCTAD. Digital Economy Report. Geneva, 2024.
11. Porter M. Clusters and Competition: New Agendas for Companies, Governments, and Institutions. Harvard Business School Press, 2023.
12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi materiallari.
13. <https://about.bankofamerica.com/content/dam/about/report-center/esg/2014/Bank-of-America-2014-Corporate-Social-Responsibility-Report-Highlights.pdf> - Bank of America rasmiy veb-sayti ma'lumotlari
14. <https://about.bankofamerica.com/en/search?q=corporate+responsibility&p=2> – Bank of America rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlangan